



ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI VA ULARNING TA'LIMGA TA'SIRI

Joniqulova Durdona

Annotatsiya: Maqolada onlayn ta'lim platformalaridan "kundalik.com" platformasining maktab ta'lim jarayoniga salbiy hamda ijobiy ta'sirlari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "kundalik.com" platformasi, jurnal, qog'oz kundalik, AKT savodxonligi, elektron darslik.

ONLINE LEARNING PLATFORMS AND THEIR IMPACT ON EDUCATION

Annotation: in the article, there are opinions about the negative and positive effects of online educational platform "kundalik.com" on the school education.

Key words: "kundalik.com" platform, journal, paper dairy, ICT literacy, electronic textbook.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanganligi sababli ta'lim muassasalarida elektron ta'lim platformalarining qo'llanilishi ta'lim jarayonidagi bir qancha qulaylik hamda yutuqlarga sabab bo'lmoqda. Maktablarda "kundalik.com" platformasi o'quvchilarning baholanishi uchun qog'oz jurnal o'rnini egallagan. Albatta, buning ham o'ziga yarasha salbiy hamda ijobiy natijalari bor.

Kundalik.com ota-onalar va maktab hamkorligini mustahkamlash maqsadida joriy qilingan ta'lim resursi hisoblanadi. Kundalik.com—raqamli ta'lim platformasi bo'lib, o'qituvchilar uchun onlayn rejimda darslarni rejalashtirish, dars ishlanmalarini tuzish, o'quvchilarning davomati va yutuqlarini jurnal hamda kundalikning elektron shakllarida yuritish imkonini yaratadi. Shuni aytish kerakki, kundalik.com tizimi ota-onalarga qator qulayliklarni yaratadi. Ota-onalar onlayn tarzda farzandlarining darsda qatnashayotganiga, darsni qay darajada o'zlashtirib borayotganligini, ertangi kun uy vazifalari haqida tezkor ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Umumiy qilib aytganda, kundalik.com tizimi o'qituvchilar va ota-onalarning o'zaro mustahkam hamkorligini ta'minlashda ishonchli ko'priq vazifasini bajaradi. Darvoqe kundalik.com tizimi pedagogdan juda kuchli mas'uliyatni talab qiladi. Chunki, o'qituvchi o'ziga biriktirilgan sinfga o'z vaqtida uy vazifasini bermasa yoki darsda javob bergan o'quvchilarni vaqtida baholamasa, uning ko'rsatkich foizi pasayadi. Bu albatta, maktabning reytingiga ta'sir etadi. Kundalik.com tizimidan foydalanishning salbiy natijalari ham mavjud. Bularga o'quvchilarning telefonga ko'proq bog'lanib qolishini aytishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida ularning salomatligiga salbiy ta'sir etishi bilan bir qatorda kitoblardan uzoqlashishyapti, ya'ni ularning qo'llarida kitobning asli bo'lishiga qaramasdan elektron darsliklarga suyanib qolishgan.

Bundan tashqari ushbu tizimning bemalol ishlashi uchun yana bir qator to'siqlar bor. Bulardan biri elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar bo'lsa, yana biri Internet tezligining pastligidir. Ayniqsa chekka hududlarda. Eng asosiy muammolaridan biri esa



ko'plab ota-onalarning zamonaviy smartfonlar,planshet,noutbuklarga yoki yetarlicha internet savodxonligiga ega emasligidir.Buning oqibatida qog'oz kundalik paytida farzandlarini nazorat qilib turgan ota-onalar endi bu imkoniyatdan foydalana olmayapti.Hatto,maktablardagi ba'zi o'qituvchilar ham yetarlicha AKT savodxonligiga ega emaslar.Bundan ko'rinib turibdiki,ular da o'quvchilarni baholashda ham qiyinchiliklar tug'ilyapti va baholashdagi ba'zi xatolar ham shundan kelib chiqyapti.

Xulosa qilib aytganda, bu platformadan foydalanishdagi samaradorlik mamlakatimizda AKT savodxonligi o'sishi bilan asta-sekin rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim>
- 2.<https://emaktab.uz/news/109>
- 3.<https://m.facebook.com/groups/zamonaviyustozgazetasi/posts/357092862664361/>